

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA FE’L SHAKLLARINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY USULLARI

Aydin Sultanova

Nukus DPI O‘zbek tili kafedrasida dotsenti,

Dinora Sultomurodova,

Ajiniyoz nomidagi NukusDPI

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi

1-kurs magistranti

***Annotatsiya.** Ushbu tezisda o‘zbek tili darslarida fe’l shakllarini o‘rgatishning zamonaviy usularidan foydalanish, ya’ni darsni innovatsion texnologiyalar yordamida olib borish haqida fikr yuritilgan. Bu yo‘l orqali o‘quvchilarning qiziqishini orttirish hamda dars samaradorligini oshirish haqida so‘z boradi.*

***Kalit so‘zlar:** innovatsion usul, mashqlar, keys-study, joyteka, joyteka, filippity.*

Bugungi shiddatli davr har bir insondan bolalik chog‘idan boshlab qunt bilan o‘qish, ilm va hunar o‘rganishni talab etmoqda. Ana shu talab asosida mamlakatimizda o‘ziga xos ta’lim tizimi yaratildi: “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonun va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi. Ularda ta’limning boshqa sohalari qatori ona tili ta’limiga ham alohida o‘rin ajratilgan.

Ma’lumki, hozirgi paytda har bir milliy til an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik-texnologik vositalardan unumli foydalanmoqda.

Shu jumladan, o‘zbek tili darslarida ham har bir o‘qituvchi innovatsion usulda dars o‘tishi zamon talabiga aylandi. Bu esa pedagoglarni texnologiyadan foydalanishni to‘laqonli ravishda bilishga chorlaydi.

Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarliroq bo‘ladi. Interfaol usullar qo‘llanilganda mustaqil ishlash ko‘nikmasi va malakasi oshadi. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning ko‘plab turlari mavjud bo‘lib, shulardan eng samarali turlari: “keys-study”, “aqliy hujum” , “klaster” metodlari, “filippity”, “joyteka”, “learning apps” iovasida ishlanadigan o‘yin turlari hisoblanadi.

O‘zbek tili darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantrishda yaxshi samara beradi. Fe’l shakllarini o‘qitishda samarali usullardan biri bu “learning apps” dasturi orqali tuziladigan turli xil shakldagi savol va boshqotirmalardir. Bundan tashqari “Filippity” dasturidagi turli xil o‘yin shakllari, mavzuni kengroq tushunishga va mustahkamlashga yordam beradi. “Filippity” dasturidagi random orqali o‘quvchilarning uyga vazifalarini

nazorat qilishi ham mumkin, ya’ni randomning o‘zi o‘quvchini tanlab beradi. Bu esa o‘quvchlar orasida kelishmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Mavzu to‘laqonli yoritib berilgandan so‘ng, uni mustahkamlash uchun “Joyteka” dasturida ishlangan o‘yin metodidan foydalansak samarali bo‘ladi. Bu o‘yin sharti shundaki, qulflangan xonaning eshigini savol va topshriqlarni yechgan holda ochiladi. Savollar xona ichiga yashiringan, o‘quvchilar esa , ularni xona jihozlarini ochib ko‘rgan holda topadilar. Mabodo, bitta savolga noto‘g‘ri javob berilsa, u holda eshik ochilmasdan qulfligicha qoladi.

Bu metodlar har bir o‘quvchini darsda sergak o‘trishga hamda topqirlikka, faollikka chorlaydi, o‘zbek tili faniga nisbatan qiziqishini orttiradi. Shu bilan birga o‘quvchilarning mavzuni qay darajada o‘zlashtirganligi ma’lum bo‘ladi. Bu darsi orqali o‘qituvchi nafaqat o‘z mavzusini samarali tarzda o‘tadi, balki o‘quvchilarga axborot texnologiya vositalaridan foydalanishni ham o‘rgatadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘sib kelayotgan yosh avlodga bilim berishning yangi usullarini ishlab chiqish, o‘quv jarayoniga tavsiya etish dolzarb masalalardan biridir. Ta’lim-tarbiya bir joyda to‘xtab qolmaydi, u doimiy takomillashuv jarayonida. Shunday ekan, har bir pedagog dars jarayonida o‘quvchilarni darsga qiziqtirishi, dars samaradorligini oshirishi zarur. Bu esa o‘qituvchidan zamonaviy axborot resurslaridan foydalangan holda, interfaol usulda dars o‘tishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adizov B. Ta’limni ijodiy tashkil etishning ijodiy asoslari. -T.: Muharrir, 2003. - B.280.
2. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o‘quvchisining psixologiyasi. -T.: O‘zbekiston, -B.30.
3. Karimova V.M., Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.
4. Matchanov S. Kitob o‘qishni bilasizmi?. -T.: O‘qituvchi, 1997. -B.114.